

# HAR BIR MUROJAAT OSTIDA INSON TAQDIRI MUJASSAM



Bugun, 9 yanvar kuni Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev rahbarligida sektor rahbarlari va mutasaddi tashkilotlar birgalikda 1-sektor shtabida fuqarolar uchun sayyor qabul o`tkazildi. Qabulda 30 nafar fuqaro ishtirok etdi. Sayyor qabulda N.Amanqulovning qurilishdagi kamchiliklarni bartaraf etish masalasida va 3 nafar fuqaroning ish so`rab qilgan murojaatlari bo`yicha Obodonlashtirish boshqarmasiga ishga joylashishga yo`llanma berilib joyida ijobiy yechimini topdi. Bir guruh fuqarolarning murojaati yuzasidan "Guliston" mahallasi qirg`oqbo`yi aholisi uchun tabiiy gaz tarmog`ini tortish masalasi 2 chorak boshiga qadar hal etilishi bo`yicha chora-tadbir belgilab olindi.

Shuningdek, imtiyozli uy-joylardan olish masalasida 12 nafar murojaatchiga yo`llanma berilib, 1 nafar ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqaroning qilgan murojaati bo`yicha imtiyozli davolanishi uchun 1 kun muddatda shahar hokimi tomonidan amaliy yordam beriladigan bo`ldi. Tegishliligi bo`yicha qolgan barcha murojaatlarni ijobiy hal etish

yuzasidan chora-tadbirlar belgilanib, mutasaddi tashkilotlarga topshiriqlar berildi va ijrosi nazoratga olindi.























